



## KAMPIRTEPA ENTIK SHAHARCHASI

Sattorova Xurshida Nurmatova

Termiz davlat-muzey qo'riqxonasida ilmiy xodim

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15280669>

### ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 20<sup>th</sup> April 2025

Published: 25<sup>th</sup> April 2025

### KEYWORDS

*Kampirtepa, Qadimiy Termiz, Muzrobod, Ptolamey, Oksiana Iskandariyasi, Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo), Edvard Rtveladze, Baqtriya va So'g'diyona.*

### ABSTRACT

*Amudaryoning o'ng sohilidagi Termiz shahridan 30 km uzoqlikda qadimiy Baqtriya yodgorligi – Kampirtepa entik shaharchasining xarobalari joylashgan. 2018 yilda ilmiy arxeologlar Iskandar Zulqarnaynning qarorgohi Oksdagi qadimgi Iskandariya (Amudaryoning boshqa nomi) bir paytlar shu yerda joylashganligini isbotladilar. Arxeologik qazishmalar paytida madaniy qatlamlar topilib, buyuk sarkarda kelgan davrga tegishli yangi buyumlar aniqlangan. Maqolada eski Termizdagi antik Kampirtepa saroyi me'morchiligi haqida tarixiy ma'lumotlar yoritilgan.*

Qadimiy Termiz yaqinida o'nlab asrlarning taloto'piga guvoh bo'lgan ko'hna shahar xarobalari joy olgan. Bu xarobalar bir paytlar fotix iskandar maqduniy (er.avv 356-323) tashabbusi bilan qadim Baqtriya hududida qurilgan, haligacha o'rni to'liq aniqlanmagan Oks Iskandariyasi bo'lishi mumkin. Bu ko'hna inshoot Amudaryo (Oks)ning o'ng qirg'og'ida, Muzrobod tumani Sho'rob qishlog'i yaqinida joylashgan. Bu haqda bir qator tarixiy manbalar, jumladan misrlik geograf olim Ptolamey (100-170) tuzgan tarixiy xaritasida, tarixchi hofizi abrining (taxm. 1451 vafot et.) asarida bir qator ma'lumotlar keltiriladi. Oksiana Iskandariyasi nomi qadimgi mualliflardan faqat klavdiy ptolemey (mil. II asri) tomonidan qayd etilgan. U o'zining «Geografik qo'llanma»sida Baqtriya va So'g'diyona haqida keng miqyosli geografik va etnografik ma'lumotlar, hamda oks bo'yi, Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo) oralig'ida joylashgan shaharlar ro'yhatini keliradi: «Yaksartda sug'diylarning Kiresxata tog'li shahri, oksda esa maruka, xolbisin daryolar orasida joylashgan». Taxminan, miloddan avvalgi VI asr oxirida, baqtriya ahmoniylar tomonidan bosib olingach, kampirtepadan taxminan 1 km uzoqlikda, mustahkam sho'rtepa qal'asi qurilgan va u miloddan oldingi IV asr oxiriga qadar - iskandar qo'shini tomonidan yo'q qilingunga qadar mavjud bo'lgan. 1480-1490 yillarda nashr etilgan ptolemey geografik atlasining xaritalarida, oksiana iskandariyasi oksning chap qirg'og'idagi xaraxarta va daryoning o'ng qirg'og'ida indikomardon (termiz shahri hududida) orasida joylashgan. Bu ham bugungi kun nuqtai nazaridan kampirtepa hududiga to'g'ri keladi. Iskandar maqduniyning rejasi. Ma'lumki, tangrinig erkasi deya nom olgan Yunonmakedon sarkardasi Iskandar Maqduniy qo'shini miloddan avvalgi 331 yilda Gavgamel shahri yaqinidagi yalanglikda fors podshosi doroning ikki yuz ellik minglik lashkarini tor-mor etadi. Natijada ikki asrdan buyon mag'ribu mashriqni qo'rquvda tutib kelayotgan ahmoniylar davlati barham topdi. Mag'lub podshoh mash'um

kungacha o'ziga tobe bo'lgan mamlakatning shimoli tomoniga qochadi, ammo yo'lda hamrohlari bo'lmish baqtriya va sug'd noibi bess tomonidan xiyonatkorona o'ldiriladi. Bu xabarni eshitgan Iskandar qattiq g'azablangan bo'lsa-da, u markaziyosiyo tomon yurishini kechiktirmaydi. Garchi Iskandar bu diyorlarda qattiq qarshilikka uchragan bo'lsa-da, baribir o'z maqsadiga yetadi. Bir paytlar ahamoniylar mulkiga tobe bo'lgan baqtriya va sug'dning tasarrufiga o'tadi. Albatta, Iskandarning bostirib kelishi bu o'lka uchun katta talafotlarga ham sabab bo'ldi, minglab gunohsiz insonlar qoni to'kiladi. Ammo, shu bilan birga Iskandar o'zi bosib olgan hududlarda yangi-yangi istehkomlar, imoratlar, shahar va qal'alar qurishga amr qildi. Tuproq ostidagi haqiqatlar. Bu yerda 1972 yildan boshlab Tohariston arxeologik ekspeditsiyasi tarkibida bir guruh arxeologlar tomonidan ko'p yillar tadqiqotlar olib borilgan, natijada ko'plab topilmalar va ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Ushbu tadqiqotlarning eng katta yutug'i Oks (Amudaryo)ning o'ng qirg'og'ida Iskandar Maqduniyning 329-327 yillardagi yurishlari vaqtida, yurtimiz hududida barpo etilgan eng qadimgi Yunon-makedon frurioni topilgani bo'ldi. O'tmishda Kampirtepa frurioni qayta qurilish jarayonini boshidan o'tkazgan va keyinchalik dastlabki, mudofaa qobiliyatini yo'qotib, Kushonlar davrida (mil.I-II asr o'rtalari) savdo karvonlarga xizmat ko'rsatuvchi tijorat va bojxona idorasiga aylangan. Milodiy II asr o'rtalariga kelib, kuchli zilzila va Amudaryoning toshishi natijasida shaharcha tamomila bo'shab, huvillab qolgan. Tadqiqotlar davomida salavkiylar va Yunon-Baqtriya tangalari, keramika va Kampirtepada ellinistik davrining quyi madaniy qatlamlari mavjud bo'lgani haqida dalolat beruvchi bir qator obyektlar aniqlangan.

Xususan, 1999 yil sentyabr oyida O'zFA akademigi, arxeologi Edvard Rtveladze boshchiligidagi izlanishlar davrida bu erdan miloddan avval III asrga mansub sopol buyumlar ustaxonasi, ilk ellinistik (ehtimol, salavkiylar) davridagi ayvonli uy va shartli ravishda «blindaj» deb nomlangan katta inshoot topilgan. O'rtayer dengizi bo'yidagi qal'alarga o'xshaydi. Eski Ahamoniylar qal'asi o'rniga qurilgan Yunon-makedon qal'asining umumiy maydoni 5 gektardan oshadi. Mazkur majmua tarkibida turar-joylar, markaziy bastion, xazinalar saqlanadigan g'azna, ibodatxona o'rin olgan. Bu hududdan topilgan kushon davri tangalar bir paytlar Kampirtepa shaharchasi bu davlatning muhim moliviy markazlaridan biri bo'lganini ko'rsatadi. Qal'a tashqarisida, daryo sohilad kemalar kelib to'xtaydigan va jo'nab ketadigan bandargoh qurilgan. Bu yerdan olisdanig kemalar uchun mo'ljal vazifasini bajargan baland inshoot – mayoq qoldiqlari ham aniqlangan. Qal'aga olib kiradigan darvozalar ulkan va mahobatli bo'lib, bir paytlar o'rtaer dengizi bo'yidagi shaharlarda qurilgan qal'a va qo'rg'onlar darvozasiga o'xshab ketadi. Keyingi yillarda ushbu hududning mikrorelefi sezilarli darajada o'zgargan – Amudaryo qayirlarida joylashgan bu hududni bugungi kunda sholikorlik maydonlari ish'ol qilgan, qal'aning janubiy-g'arbiy tomoni bo'ylab kanal o'tkazilgan, sharqiy tomondagi ko'hna tepaliklarxxi asrning boshlariga kelib tarvuz ekish uchun tekislangan. Garchi Iskandariya oksianasi mavjud bo'lganini fanda hech kim inkor etmasa-da, uning aynan qaysi hududda bo'lgani ancha paytdan beri olimlar o'rtasidagi murosasiz bahs mavzularidan biri bo'lib keldi. Kimdir bu shaharchani afg'onistondagi oyxonim shahri yaqinidagi xarobalarga olib borib taqadi, kimdir uning o'rni eski termiz shahri o'rnidan izladi. Va albatta, kampirtepa ham ana shu hududlar qatorida zikr etib kelindi. Shunisi aniqki, ptolemey xaritalarida (1480, 1490, 1540 yillar nashri) oksiskandariyasi Oks (Amudaryo) ning o'ng shimoliy qirg'og'ida baqtra shahridan shimolda, Oy-xonim esa chap qirg'oqda baqtradansharqda ko'rsatilgan. 1540 yilda nashr etilgan S. Myunster xaritasida ham shunday ma'lumotni tasdiqlaydi. XX asrning ikkinchi yarmida va XXI asr boshlarida oyxonim, Eski TERMIZ va Kampirtepaning qadimiy joylarini o'rganish mobaynida olingan arxeologik ma'lumotlar batafsil solishtirildi. qadimiy Shahar xarobasi Amudaryoning o'ng sohilida, Surxondaryo viloyatidagi Sho'rob qishlog'idan 0,5 km g'arbda joylashgan. Kampirtepa 2 qism; qal'a va undan g'arb va sharq tomonda joylashgan, atrofi devor bilan o'ralmagan qismdan iborat. G'arbdan sharqqa tomon umumiy uz. 750 m, shim. dan jan. ga —200—250 m. Qal'a (mayd. 4 ga) ark va turar joylardan tashkil topgan. Uning atrofi qalinligi 5 m keladigan

mustahkam mudofaa devori b-n o'rab olingan; devorga ichki yo'laklar qilingan, burchaklarida minoralar o'rnatilgan bo'lib, xandaq bilan o'ralgan. Ark qal'aning markaziy qismida joylashgan, jan. tomondan uning bir kismini suv yuvib ketgan. Arkning mayd. — 1, 3 ga, jan. -sharqiy burchagida darvozasi bo'lgan. Ark xom g'ishtdan qalinligi 5 m ga yaqin devor bilan qurshalgan. Devor atrofi kengligi 10 m lik xandaq bilan o'rab olingan. Arkning ichki qismida turli maqsadlar uchun mo'ljallangan xonalar joylashib, ular o'zaro yo'laklar b-n bog'langan 4 ta yirik blokni tashkil qiladi. Kampirtepaning mustahkamlan-magan qismi, asosan, dafn inshootlari majmuasi bilan band. Uning shim. g'arbiy qismida, 0,5 ga lik maydonda naus tipidagi 10 dafn inshooti joylashgan bo'lib, ular hajmi 33—34—35 X 33—34—35 X 13—14 sm lik kvadrat shakldagi xom g'ishtdan terilgan. Shar-qiy qismda yana bir dafn inshooti bo'lib, uning tarhi to'rtburchak, shim. dan jan. ga tomon cho'zilib, uz. 66,5 m, kengligi 3—4,2 m bo'lib, bir-biridan yo'laklar bilan ajratilgan uchta binodan iborat. Kampirtepaning mana shu qismidan tarhi aylana shaklda bo'lgan xumdon topilgan. Kampirtepadagi hayot uchta asosiy davrga bo'linadi: B i r i n ch I davr (mil. av. 3—2-a. lar) — Kampirtepa.ning janubiy. qismida, bo'lajak ark o'rnida qal'aning vujudga kelishi; Yunon-Baqtriya podsholigi davriga oid turar joilarning katta qismini Amudaryo suvi yuvib ketgan. Ikkinchi davr (mil. av. 2 — 1-a. lar) — ark o'rnida hayot qisman jonlana boshlagan. Uchinchi davr (mil. 1—2-a. lar) — Kampirtepaning yuksalgan davri, mustahkam qal'a bunyod etilishi, uning tizimining shakllanishi. Kampirtepadan ko'plab spool idishlar, bezak buyumlari, haykalchalar va boshqalardan. topilgan

Kampirtepadagi qurilish materiallarini taqqoslashga asoslangan maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mil.avv. IV asr oxiri - III asr boshiga mansub Kampirtepa inshootlari to'rtburchak shaklidagi xom g'ishtdan barpo etilgan, Oyxonimdagi binolar esa faqat miloddan avvalgi III asrning o'rtalaridan boshlab ishlatilgan kvadrat xom g'ishtdan qurilgan. Eski Termiz shaharchasida olib borilgan keyingi arxeologik tadqiqotlarda ham Oksiana Iskandariyasi o'rnini isbotlash uchun muhim bir ma'lumot topilmadi. 2000 yillarning boshida Rtveladze Oks Iskandariyasining o'rnini Kampirtepa qal'asi deb belgilash haqida fikr bildirdi. Kampirtepa mil.avv. IV asr oxiri - III asrning boshida xilma-xil tuzilishga va ahamiyatli darajada katta o'lchamga ega shaharcha bo'lib, undagi sharoitlar ushbu davrda Oyxonimda ham, Eski Termizda ham arxeologik jihatdan qayd qilinmagan. Agar mo'ljallar to'g'ri bo'lsa, ptolemey xaritalarida belgilangan Oks Iskandariyasi g'arbdan Xaroxarta va sharqdan Indikomardon shaharlari oralig'ida mavjud bo'lgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Abdiraxmonova M., Bobomurodova M. Jamoat markazlarining bugungi kundagi zamonaviy loyiha-takliflari //zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot. – 2022. – t. 1. – №. 24. – s. 309-313.
2. Abdiraxmonova M. Kokildor ota xonaqohi //theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – t. 1. – №. 7. – s. 334-336.
3. Abdiraxmonova M. turizm infrostrukturasini rivojlantirishda xonaqohlarning o'rni //eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 13. – S. 1532-1535.
4. Asqarov A.A. Eng qadimiy shahar. T.: Ma'naviyat, 2001.
5. Ahmedov M.Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. T.: "O'zbekiston" 1995.
6. Arshavskaya Z.A., Rtveladze E.V., Xakimov Z.A. Srednevekoые pamyatniki Surxandari. T.: Izdatelstvo literatury i iskusstva imeni Gafura Gulyama 1982.